

**IJTIMOYIY ISHNING AMALIY MODELLARINI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA
XOSLIKLARI****M.M. Abdurahmonova**

Farg'ona davlat universiteti

Ijtimoiy kafedra professori, Sotsiologiya fanlari doktori (DSc).

A.X. Boliboyev

Farg'ona davlat universiteti (22.00.02 ixtisosligi) tayanch doktoranti.

azizbekboliboev@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714434>

Annotatsiya. Ushbu maqolada amaliy faoliyat hisoblangan ijtimoiy ishning turli xil modellari, jumladan, tizimli, psixodinamik, ekologik, sotsiologik modellar hamda ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq masalalar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy ishning amaliy modellari tasniflanadi hamda chuqur tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy reabilitasiya, ijtimoiy korreksiya (yaxshilash, tuzatish), ijtimoiy yo'naltirilgan modellar, tizimli, ekologik, psixodinamik, sotsiologik, amaliy modellar, kompleks yo'naltirilgan model, kuchli jihatlar va resurslar bilan ta'minlash nazariyasi modeli.

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ различных теоретических моделей социальной работы, включая системный, психодинамический, экологический и социологический подходы. Детально рассмотрены теоретические основы, сущность и особенности применения каждой модели на практике. Кроме того, систематизированы практические модели и подходы, используемые в социальной работе, с научным объяснением их классификации, преимуществ и ограничений.

Annotation. This article presents a scientific analysis of various theoretical models of social work, including systemic, psychodynamic, ecological, and sociological approaches. The theoretical foundations, core concepts, and practical application features of each model are thoroughly examined. In addition, practical models and approaches used in social work are systematized, with their classification, advantages, and limitations scientifically explained.

Ijtimoiy munosabatlar individlarning jamiyatda bir-biri bilan o'zaro ta'siri jarayonida vujudga kelgan aloqalarini barqarorlashtiradi. O'zaro ijtimoiy aloqalar insoniyat ichki holati ta'siri ostida o'zgaradi va uning o'rab turgan voqelikka bo'lgan egalik munosabatida ham ifodalanadi. Shuning uchun ijtimoiy munosabatlar kishilarning ijtimoiy aloqalari, o'zaro ta'sirida, o'zaro bog'liklari, o'zaro hatti-xarakatlarini tashkil etuvchi obyektiv omillar hisoblanadi. Ijtimoiy ish uchun bir tomondan kishilarning hayot yo'llarini tiklanishi, individual shaxsiy o'z jamoaviy hayot sharoitlari bilan bog'liq muammolari ni hisobga olish muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan aloqalar amalga oshishda sosiomadaniy muhitni o'zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy aloqalarga esa ijtimosh yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy reabilitasiya, ijtimoiy korreksiya (yaxshilash, tuzatish), xayr-ehson va boshqalar kiradi. Bu aloqalarni kuchaytirish - ijtimoiy ishning muhim vazifalaridan biridir. Ijtimoiy ishni fan sifatida tushunish muyaun kishilar shunchaki jamiyatda emas, balki xamjamiyatda yashayotganligini anglash muhimdir.

Odamlar doim o'zlariga monandlar qurshovida va doimo o'zaro ta'sir, holatida bo'ladilar. Bu insonlar uchun tabiat, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat muxim omili sifatida ijtimoiy voqelikka nisbatan mustaqil sohasini tashkil etuvchi juda ko'p xilma-xil ijtimoiy aloqalar, munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy ish mustaqil predmet, fan sifatida murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan individ, shaxs, guruh yoki uyushma hayot faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan munosabatlar va ular bilan bog'liq jarayonlarni o'rganadi hamda tadqiq etadi. Ijtimoiy ish mo'taxassisining faoliyati inson hayotiy faoliyatida yuz beradigan muammolarni hal etishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyatdir. Ijtimoiy xizmatchining aniq maqsadli faoliti shubhasiz mijozning xulqi va axloqli tashqi va ichki omillar bilan bog'liqligini, mijozning atrof-muhit bilan bo'lgan munosabatini yanada qulaylashtirishga yo'naltirilgan o'z mohiyatiga ko'ra, mijozning xulqi va holatiga boshqaruvni ta'sir etishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, ijtimoiy ish nazariyasi kishilar hayotiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi ko'p qirrali ijtimoiy aloqa va munosabatlarini boshqarish bilan bog'liq bilimlar tizimidir.

Demak, ijtimoiy ish nazariyasi - bu jamiyat obyektiv qonuniyatlariga va davlat qonunlariga asoslangan odamlarni qiyin hayotiy vaziyatlarda tushib qolganda tumushi, yo'lini tartibga solish zarurat tug'ilganda shaxs va uni o'rab turgan ijtimoiy muxitga aniq maqsadli ta'sir etish orqali ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgandir. Ijtimoiy ishning asosiy - tushunchalari ijtimoiy ish nazariyasida kategoriya tushunchalar muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida ijtimoiy ishning mohiyati, mazmuni, qonuniyatlari va tendensiyalari ochiladi, ya'ni o'ziga xos kalit rolini o'ynaydi.

Tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, bu mavzu bo'yicha tadqiqot materiallari deyarli rus tilida bo'lganligi hamda ushbu mavzu bo'yicha o'zbek tilida nihoyatda kam adabiyotlar mavjudligi umuman olganda bu mavzu bo'yicha keng ko'lamda tadqiqotlar olib borilmaganligi ham bu mavzuni yoritishda ko'pgina qiyinchiliklarga duch keldik.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu mavzu o'zining o'ta murakkab va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy ish sohasi bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligi bizlarga ma'lum. Ammo ilmiy nuqtai nazardan qilingan ishlar borasida tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan. rivojlangan Sharq mamlakatlarda ijtimoiy ish mo'taxassislarini tayyorlash bo'yicha o'rgansa arzigulik tajriba mavjud. Biz o'z tadqiqotimizda imkon qadar rivojlangan Sharq mamlakatlarida ijtimoiy ish sohasi hamda ijtimoiy ish nazariyasini yanada rivojlanayotganini hamda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ibratomuz ishlarni ayrim jihatlarinigina yoritishga harakat qildik. Ushbu mavzu bo'yicha xorij mamlakatlari olimlaridan M.Richmond¹, Tetereskiy² N.V., Kuzmin K.V., Sutyurin B.A³, Melnikov V.P. , Xolostova E.I⁴, Senyavskaya E.S Firsov M.V⁵, Xolostova E.I⁶ o'zbek olimlaridan G'aniyeva⁷ M.X, Bekmurodov M, Axundjonova S, Nabiye⁸, Jo'rayev

¹ Рамзей Р. Социальная работа: наука-профессия. К развитию концепции. / Социальная педагогика и социальная работа за рубежом,— Социальная работа,— Вып.6.— М., 1991.

² Тетерский Н.В. Ижтимоий ишга кириш. Т. 2006

³ Kuzmin K.V., Sutyurin B.A. Ijtimoiy ish tarixi (qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha) - 4-nashr. va rev. - M., 2006 yil.

⁴ Melnikov V.P. , Xolostova E.I. Rossiyadagi ijtimoiy ish tarixi. - M., 1998 yil.

⁵ Firsov M.V. Ijtimoiy ish tarixi. - 2-nashr. - M., 2007 yil.

⁶ Xolostova E.I. Rossiyada ijtimoiy ishning genezisi. - M., 2006 yil.

⁷ Ганиева М. Ижтимоий иш асослари. Т.: 2010 йил

⁸ Набиев Ф. Ижтимоий сиёсат. Т.: 2007й

L.N⁹, Salimov Yu Sobirova D, Tadjiyeva S, Kim Lyudmila va boshqalarning ilmiy asarlaridan ijodiy foydalanishga harakat qildik.

Ijtimoiy ish ilmiy asoslarining shakllanishi butun dunyoda uzluksiz munozaralar jarayonida yuz bermoqda. Eng faol muhokama qilinayotgan muammolardan biri fan sifatidagi ijtimoiy ishning predmeti, amaliy faoliyat sohasi va o'quv predmeti, asosiy bilim va ko'nikmalar hajmi sifatidagi ijtimoiy ish mavqeyi haqidagi masaladir. Hozirgi davrda fan sifatidagi ijtimoiy ishni qurish va bayon qilishning umum e'tirof etgan me'yorlari yo'q, bu esa uning - yoshligi, ilmiy apparatining shakllanish va oyoqqa turish bosqichida ekani to'g'risida guvohlik beradi. Ijtimoiy ish fanining predmeti, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida uni boshqa fanlar predmetlari, avvalo Sotsiologiya, psixologiya, konfliktologiya, ijtimoiy tarix predmetlari bilan qiyoslab so'z yuritish mumkin. Ijtimoiy ish ko'proq amaliy xususiyatga ega.¹⁰ U faqat nazariyadan iborat emas, balki o'z tarkibiga uzviy ravishda muayyan amaliy tajribaning ma'lumotlarini ham hamrab oladi. Hayot bilan, aholi turli guruhlar va qatlamlari hayotining muayyan shart- sharoitlari bilan mustahkam aloqa ijtimoiy ish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini oshirishdagi muhim shartdir.

Ushbu tadqiqot ishining obyektlari va predmeti Ijtimoiy ish modellarini o'rganish hamda predmeti bo'lib esa, ijtimoiy ish nazariyasida mijozlar bilan ishlashda ijtimoiy ish modellaridan foydalanishni qo'llash, shuningdek, ijtimoiy ishning ekologik modellarini amaliyotga tatbiq etish turadi.

Ijtimoiy ish ko'proq amaliy ko'rinishga ega bo'lganligi sababli uning nazariy jihatlarini o'rganishda boshqa ijtimoiy fanlardan ham iqtiboslar olinadi hamda ijtimoiy ish nazariyasi talqinida ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan ijtimoiy ish modellarini ko'rib chiqishda quyidagi metodlardan foydalanildi: analiz-sintez metodi, keys-stadi metodi, baholash metodi, hujjatlarni tahlil qilish metodi, intervyu metodi, eksperiment metodi, tajriba-psixologik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

O'rganilayotgan mavzuning yangiligi shundan iboratki, bugungi kunda ijtimoiy ish nafaqat amaliy faoliyat sifatida rivojlanib bormoqda balki, ijtimoiy ishning nazariy jihatlar ham rivojlanib ijtimoiy fanlar qatorida alohida o'ringa ega bo'lmoqdaki, bu esa boshqa ijtimoiy fanlar ham ijtimoiy ishning modellari, nazariyalari, texnologiyalaridan foydalanayotganliklarini ta'kidlash mumkin. Ijtimoiy ishning psixo-orientir modeli, Ijtimoiy ishning kompleks-orientir modelining o'ziga xosligi (sotsial-pedagogik model, kognitiv model, V.G.Bocharovning ijtimoiy xizmat tizimlar modeli, S.I.Grigorevning vital-orientir modeli va b.) Ijtimoiy ishda xorij modellarining o'ziga xosligi (Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh va b. Mamlakatlar misolida) ko'rib chiqildi.

Istalgan kasb puxta umumiy va maxsus tayyorgarlik, tajriba orttirish natijasida inson erish bir kator maxsus bilimlarni va muayyan ko'nikmalarni nazarda to'tadi. «Kasb» termini odatda keng ma'noda ishlatiladi: ishdagi kasb, professional duradgor, professional tarbiyalovchi, vrachlik kasbi.

⁹ Жўраев Л. Ижтимоий иш бўйича изоҳли луғат. Самарқанд. 2010й

¹⁰ Spravochnoye posobiye po socialnoy rabote / Pod red. A.M. Panova, Ye.I. Xolostovoy.— M.: Yurist', 1997.

Ingliz tili lug'atlarida kasb (profession) yuqori darajada texnik va intellektual chuqur bilimga egaligi bilan ifodalanadigan o'rta sinf vakillarining ishi (occupation) sifatida keltiriladi¹¹.

Professional faoliyatning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, texnik turlari mavjud.

Ijtimoiy ish faoliyatning an'anaviy turlariga taalluqli emas. Ijtimoiy ish faoliyatning asosiy turidir. U o'ziga xos bo'lib, aholining turli qatlamlariga yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Ijtimoiy ish o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida uch tur kasb, fan o'quv fani bilan ifodalanadi.

Kasb sifatida u alohida shaxslarga, kishilar guruhiga yordam ko'rsatish orqali shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan; fan sifatida u shaxs hayotiy faoliyatiga, aniq ijtimoiy guruqqa va jamiyatga bevosita aloqador ijtimoiy jarayonlarni va ijtimoiy xodimlarni o'rganadi. Ijtimoiy ish o'kuv fani sifatida ko'p o'irrali xususiyatga ega va turli tipdagi o'kuv yurtlarida o'qitiladi.

Ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy yo'naltirilgan kasablar bo'lgan va psixolog, pedagog singari boshqa o'xshash kasblardan farq qiladigan belgilarga ega. Ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasida o'zaro hamkorlik xususiyatining o'zi asosiy farq qiladigan xususiyatlardan biri hisoblanadi. Yordam beradigan boshqa kasblarga xos bo'lgan subyektiv-obyektiv munosabatlardan farqli ravishda postindustrial jamiyatning ijtimoiy ishida ishonch asoslangan subyekt-subyekt munosabatlari ustunlik qiladi. Bunday sharoitda mijoz qaror qabul qilish xuquqini yoki ustunlikni o'zida saklab koladi.

Ijtimoiy ishning eng umumiy ta'rifi - bu shaxs, guruhlar va hamjamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha professional faoliyat. Buyuk Britaniya ijtimoiy xodimlari uyushmasi ijtimoiy ishning quyidagi ta'rifini berdi: ijtimoiy ish - bu ularga ta'sir qiladigan shaxsiy, ijtimoiy va vaziyatga bog'lik qiyinchiliklarni belgilashda kishilarga va hamjamiyatlarga yordam beradigan mas'uliyatli kasbiy faoliyatdir.

2002-yil iyulda Jenevadagi Xalqaro ijtimoiy xodimlar Federatsiyasining har yillik uchrashuvida quyidagi ta'rif qabul qilindi: ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarga, kishilar o'rtasidagi muammolarni xal qilishga, mobillashtirishga va individlar va guruhlarining xotirjamligini kafolatlash uchun ularni safarbar etishi va ozod qilishga yordam beradi,

Ijtimoiy ish inson hulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyasini qo'llab, odamlarning ular atrofidagi kishilar bilan munosabatlariga aralashadi. Inson xuquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ish uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy ish qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va rehabilitatsiya qilish vositasida qiyinchiliklarni yengib o'tishda ularga yordam beradi. Bu tashxis ko'yish uchun yuborilgan huquqbuzarliklarni tuzatish va nazorat qilish bilan bog'lik patronaj, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'lim faoliyatidir.

Kasbiy faoliyat sifatida ijtimoiy ish uch sohani o'z ichiga qamrab oladi. Birinchidan, bu shaxsiy va oilaviy darajalardagi ijtimoiy terapiyadir. Ikkinchidan, bu turli tasnifdagi guruh bilan olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir. Va, uchinchidan, bu jamoada, yashash joyida olib boriladigan ijtimoiy faoliyatdir.

Individni ijtimoiy moslashtirish va hayotga qayta tayyorlash, uning hayotida ro'y berayotgan nizolarni hal qilish yakka tartibda ishlashning asosiy maqsadi hisoblanadi.

¹¹ Аберкомби Н. и др. Социологический словарь. - Казань: Изд-во Казан. Ун-та, 1997; Джер Д., Джери Дж. Большой толковый социологический словарь (Коллинз): В 2-х т. | Пер. с англ. М: Вече, АСТ, 1999.

Misol uchun, oilada bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti ota-onalarning ijtimoiy-madaniy va moddiy maqomiga, ularning bolalarga kerakli e'tibor berishga qodirligi yoki qodir emasligiga, mazkur oila qarda yashashiga, ta'lim resurslarining qulayligiga bog'liq.

Barcha sanab o'tilgan xolatlarda qonunlarda mustahkamlangan qoidalardan foydalanish uchun ularning ota-onalariga ham malakali yordamchilarning ko'magi zarur. Ijtimoiy ish e'lon qilingan huquqlarni amaliyotga tatbiq qilinishi uchun kerak bo'lgan ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy xodim qiyinchiliklarni aniqlashi, mijozni qo'llab-quvvatlashga qartilgan ijtimoiy resurslar manbalariga murojaat qilishda oilaga va individga yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy yordam va ko'mak zarur bo'lgan guruhlar yoshiga qarab bolalar, yoshlar, keksa fuqarolarga tasniflanishi mumkin. Boshqa tasnif gender, madaniy yoki o'xshash muammolar bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni diniy guruhlar, yolg'iz ota-onalar, yolg'iz onalar birlashmasi, sobiq alkogoliklar yoki giyohvandlar guruhlar. Ko'pincha ijtimoiy xodimlar ijtimoiy illatga aylangan yoki xatto jinoiy xususiyatga ega bo'lgan guruhlar - bolalar yoki o'smirlar jinoyatchiligi, darbadorlik, uyushgan foxishabozlik, aksilijti-moiy yo'nalishli guruhlar bilan ishlashiga tug'ri keladi.

Yashash joyi bo'yicha va jamoalarda faoliyat olib borish ijtimoiy xodim faoliyatining muhim sohasi hisoblanadi. U odamlar zich bo'lib yashaydigan joylarda ijtimoiy xizmatlar ta'motini kengaytirishga, ijtimoiy aloqa-larni mustahkamlashga, qulay ijtimoiy-ruhiy iqlim yaratishga, shuningdek, turli mahalliy tashabbuslar, o'zaro yordam beruvchi guruhlarini tashkil etishga qaratilgan. Bu sohada O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy tashkiloti *-mehnatining* ulkan salohiyatidan va imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Yetimxonalar, internat xodimlari; tibbiy muassasalar tizimidagi, ijtimoiy xodimlar; nogiron bilan ishlaydigan mo'taxassislar va bu ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyat turlarining to'liq ro'yhati emas, uni yana davom ettirish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy ishning mazmun-mohiyatini individlar, oilalar, guruhlarining ijtimoiy huquqlarini ro'yobga chiqarishda va to'laqon ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga tusqinlik qiladigan jismoniy, ruh intellektual, ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni hal qilishda ularga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat sifatida ta'riflash mumkin. Ijtimoiy ishning mazmun-mohiyatini faoliyatning o'ziga xos turi, inson hayotining madaniy, ijtimoiy va moddiy darajasini ta'minlash maqsadida unga davlat tomonidan va nodavlat ko'mak berish, insonga, oilaga yoki shaxslar guruh yakka tartibda yordam berish sifatida ta'riflash mumkin¹.

Turli mamlakatlarda ijtimoiy xodimlarni ish bilan ta'minlash xolatiga turlicha yondashuvlar mavjud. Bir qator mamlakatlarda, masalan Shvesiyada - bu kasb ijtimoiy himoya va sog'liqni saklashni birlashtiradigan sohaga taalluqli. Irlandiyada esa ijtimoiy xodimlar (social workers) sog'liqni saqlash tizimiga mansub. Ular kasalxonalarda, turar joylaridagi salomatlik markazlarida ishlaydi, kishilarni ruhiy qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy ta'minot sohasida odamlarga yordam beruvchilar (welfare workers) ijtimoiy himoya qilish sohasida ishlaydi.

Bundan tashqari, Irlandiyada yoshlar bilan ishlaydigan mo'taxassislar (youth workers) mavjud.

Ushbu mutaxassislar, u yoki bu darajada bir-birlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ko'ngillilarni va turli hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarni hamkorlikka taklif etadi.

AQShda ijtimoiy xodim ijtimoiy xizmatlar bo'limlaridan tashqari tibbiyot muassasalarida ham faolsh ko'rsatishi mumkin. Mijozni ham davolash jarayonida, ham uyiga qaratishga tayyorlashda yetarlicha tibbiy va ruhiy qo'llab-quvvatlash uning vazifasi hisoblanadi.

Rossiyada ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ta'minot, ta'lim (ijtimoiy pedagoglar), ish bilan ta'minlash xizmati, armiyada faoliyat ko'rsatadi. O'zbekistonda o'am ijtimoiy xodimlar shunga o'xshash sohalarda faoliyat olib boradi.

Moliyalashtirish manbai ijtimoiy ish dasturlaridagi asosiy tafovutlardan biridir. Ushbu tamoyil bo'yicha dasturni ikkita shaklga ajratish mumkin. Bular soliqlar hisobiga faoliyat ko'rsatadigan davlat shakli hamda va ixtiyoriy xayr-ehsonlarga asoslangan xususiy shakl. Biroq ko'pincha xususiy xizmatlar davlat qarzisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. G'arbdagi ko'plab xususiy agentliklar davlat institutlari tomonidan boriladigan pullar, gonorollar, xizmatlar evaziga tushadigan pullar. cherkov ulushlari va boshqqa omonatlar, meros qilingan pullar, yillik rentalar, omonatlar foizlari singari moliyalashtirishning turlarini birlashtirish hisobiga faoliyat olib boradi.

Ijtimoiy dasturlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi normal hodisa. Jamiyatning bir qismi bo'lgan ijtimoiy muassasalar uning ko'magisiz unumli va samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Ijtimoiy muammolar jamiyat hayotiy faoliyatining natijasidir, ularni hal qilish, sarf-xarajatlarni qoplash kerak

Ijtimoiy ishning asosiy modellari uning turli xil maktablari evolyutsiyasini, ijtimoiy ish mazmun-mohiyatida va shakllaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Har bir model nazariy qoidalarga ega, inson va jamiyat tug'risidagi turli fanlar bilan bog'lik, ijtimoiy ishning muayyan mazmuniga ega.

Ijtimoiy ishga bag'ishlangan adabiyotlarda uning zamonaviy modellarini ijtimoiy yo'naltirilgan, psixik yo'naltirilgan va kompleks yo'naltirilgan modellarga bo'lish an'anaga aylangan.

Unga eng kuchli ta'sir qilgan va ta'sir ko'rsatayotgan turdosh fanlarga nisbatan ijtimoiy ish sohasidagi nazariy yondashuvlarning taxlili bunday tasniflashning asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan modellar sotsiologik konsepsiyalar bilan uzviy bog'lik, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini bilishga, jamiyatni tarkibiy to'zishga, uning ijtimoiy institutlarining o'zaro aloqalariga tayanadi.

Zamonaviy ijtimoiy yo'naltirilgan modellar orasida quyidagilar ko'proq tanildi: ekologiya nazariyasi («hayot modeli»); ijtimoiy-radikal model; tizimli model.

Ijtimoiy ishda hayot modeli kategoriyasi ekologiya tizimlari nazariyasining asosiy tushunchasiga aylandi. Hayot modeli odamlarni borliqning ko'p qirrali shart-sharoitlariga doimiy ravishda moslashib boradigan hayot faoliyatining subyektlari sifatida qaraydi, hayotiy tizimlar (kishilar, ularning birlashmalari) o'z muhiti bilan yaxshi muvozanatni saqlashga harakat qilishlari kerak. Ushbu nuqtai nazardan odamlarning moslashuvchanlik qobiliyatlarini kuchaytirish, shuningdek ularning muhitiga ta'sir qilish ijtimoiy ishning bosh maqsadi hisoblanadi. Tizimli ekologik yondashishi aholini ijtimoiy ta'minlash va qo'llab-quvvatlash tizimi faoliyatini tashkil etishda keng ko'lamda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ishni nazariy asoslashning ijtimoiy-radikal modeli asosida inson huquqi uchun harakat qilish yotadi. Mazkur yondashuv doirasida quyidagi qoidalar e'lon qilinadi. Birinchidan, ba'zi guruhlar (masalan, yoshlar, ayollar) ijtimoiy ekspluatatsiya kilinadigan guruhlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xukmron iqtisodiy va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari ushbu guruhlarini marginallashtiradi va ularning hayotiy imkoniyatlarini kamaytiradi. Uchinchidan, ijtimoiy institutlar o'z shakli, konunlari va boshqarish asoslarini o'zgartirmaguniga qadar barcha odamlar uchun imkoniyatlarning tengligiga erishib bo'lmaydi.

Ijtimoiy ishning qat'iy modeli turli ijtimoiy guruhlar vakillari ongini himoya qilish va rivojlantirish modeli sifatida quriladi, u «vakolatlar berish», ijtimoiy advokatura singari shakllari

asoslanadi hiimoya qilish va «vakolatlar berish» texnologiyasi jabrlangan, yuz o'girilgan guruhlariga kiradigan mijozlarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, boz ustiga xokimiyat to'zilmalarining ta'sirini sinfiy mansublikni hisobga olishga urg'u beriladi.

Tizimli model. Qiyin hayot sharoitiga tushib qolgan odamlar ijtimoiy tizimning o'ziga xos elementlari hisoblanadi. Binobarin, insonning ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash muammosini xal qilish acocan tizimlarni takomillashtirishga va isloh qilishga asoslanishi kerak.

Mazkur nuqtai nazardan ijtimoiy xodimning vazifalari ikki guruhga bo'linadi bir tomondan, ular odamlarning muammolarini hal qilishda ularga yordam berishga qodir bo'lgan tashkilotlar va idoralar faoliyatini tartibga solish bilan bog'lik, boshqa tomondan, o'zini o'zi tartibga soladigan tizim sifatida inson salohiyatini faollashtirish xaqida so'z bormoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, tizimlar nazariyasida ikkita katta yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: asosan mijozga yordam berishga yo'naltirilgan funksionalizm hamda ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan va mijozning shaxsiy kamol topishiga ko'maklashadigan ijobiy munosabatlarga muhim rol o'ynaydigan konstruktivizm¹. Bunda ijtimoiy ish yaxlit tizim sifatida qaraladi. Uning elementlari avtonom mavjud bo'lgani holda birmuncha yaxlitlikni xosil qiladi. Mijozning ijtimoiy muhiti shunday elementlardan biri hisoblanadi. Shu sababli tizimlar nazariyasida ekologiya modeli deb nomlangan ijtimoiy ish modeli ajratib ko'rsatiladi.

Ijtimoiy ishning psixologik yo'naltirilgan modeli psixologik bilimlarga, insonning psixologik maqomi va kamol topishi qonuniyatlari hisobga olinishiga tayanadi. Ushbu guruh orasida psixodinamik model va kognitiv-bixevioral modelni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy ishda psixodinamik model 3.Freydning klassik psixoanaliz nazariyasi g'oyalariga borib taqaladi. Bunda gan psixika to'zilmasi to'g'risida, bolaning ruhiy kamol topishi tug'risida, ruhiy kasalliklar va ularni davolash tug'risida boradi. Psixoanaliz nazariyasi yakka tartibda ijtimoiy ish olib borishning mijozni individuallashtirish, yuzaga kelgan muammolarni baxolash, unga tashxis qo'yish, yordamning terapevtik texnologiyalaridan foydalanish singari tamoyillariga asos soldi va yakka tartibdagi xolatlarni {casework} kurib chikishning asosiga aylandi.

Ijtimoiy ishning psixodinamik modeli, birinchidan, mijozning ichki dunyosiga ta'sir etish vositasida uning hulq-atvori, qarashlari, munosabatlarini tuzatishga yordam beradi. Ikkinchidan, mijozning ijtimoiy-iqtisodiy xolatini, uning ijtimoiy-ierarxik guruhlar tizimidagi maqomini, asosiysi aloqa qilinadigan guruhdagi munosabatlar dinamikasini, mijozning yashash muhitini hisobga oladi. Uchinchidan, aniq yordam berish jarayonida foydali bo'lib chiqadi.

Ijtimoiy xizmatlardan unga ehtiyoj sezadigan barchaning foydalanishi ijtimoiy ishning kognitiv-bixevioral modelining asosiy tamoyilaridan biri hisoblanadi. Ushbu model insonning kuzatiladigan hulq-atvoriga, uning ijtimoiy muhitga nisbatan faolligiga e'tiborni qaratadigan o'rganish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan insonni o'rgatish yo'li bilan istalgan tajribani amalga oshirish mumkin.

Ijtimoiy xodim oldida xalos bo'lish kerak bo'lgan hulq-atvorni aniqlash, xohlangan yangi hulq-atvorni aniqlash va inson hulq-atvorini shakllantiradigan, uni mustahkamlash imkonini beradigan rejimlarini aniqlash vazifasi turadi. Moslashish yoki ijtimoiy hohlangan hulq-atvorga rioya qilganda inson «yaxshi hayotga» erisha oladigan muhit yaratilgan taqdirda ushbu vazifalarni bajarish mumkin¹².

¹² Хьюэлл Л., Зиглер Д. Теории личности - СПб: Питер, 2000, С. 358.

Ta'sir ko'rsatish esa shart-sharoitlarni uzgartirishga, sa'y-harakatning yangi shakllarini o'rganishga va tajribani tushunishga yo'naltirilishi kerak. Ijtimoiy xodim, ham mijoz uchun batafsil ishlab chiqilgan sa'y-harakatlar tizimi yordamida texnologik jihatdan bunga erishish mumkin.

Ijtimoiy ishning kompleks yo'naltirilgan modellari biopsixo-ijtimoiy mavjudot sifatida insonni himoya qilish va uning hayotiy kuchlarini qo'llab-quvvatlash muammolarini yaxlit qurishga qaratiladi. Psixologik va sotsiologik bilimning integratsiyasi asosiga qurilgan rolli model ushbu modelga misol bo'la oladi (Ya. Moreno, J.G. Mid). Ushbu yondashuv, eng avvalo, shaxsni tushunishga asoslanadi, mijozni o'tgan tajribani hisobga olgan holda o'zini qanday to'tish va kamol topishga o'rgatadi, hayotdagi o'z o'rnini tug'risida tasavvur uyg'otadi.

Kuchli jihatlar va resurslar bilan ta'minlash nazariyasi modeli o'zgarishga va o'z resurslarini faollashtirishga yordam berish uchun insonning kuchli tomonlaridan foydalanadi, ijtimoiy xodimga hamkor rolini beradi, mijoz va ijtimoiy xodim o'rtasidagi to'siqni kamaytirish imkonini beradi, mijozlar ishlatadigan stigmatizimlangan terminologiyadan foydalanishning oldini oladi.

Ijtimoiy ishga nazariy yondashish bilan amaliyot o'rtasidagi tafovutga qaramay, eng avvalo, turli modellarning umumiy xususiyatlarini aniqlaydi. Ijtimoiy ishning u yoki bu nazariy poydevori ijtimoiy ish mazmun-mohiyatiga ta'sir ko'rsatadi, ishonchli ijobiy natijalar berishi mumkin. Ijtimoiy xodim uz shaxsi va amaliyotining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda o'zi amalga oshiradigan ishga boshqalardan ko'ra ko'proq: yondashuvlar mos kelishini yaxshi bilishi kerakligi buning asosi hisoblanadi.

Xulosa

Ijtimoiy ish – bu tizimli va maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Mazkur amaliy faoliyat hodisalar, vaziyat va jaranlarni tahlil qilishga (tushuntirish va anglab yetish) yordam beruvchi bir va bir qancha nazariyalarga asoslanadi. Insoniyat va guruhda o'zgarishlarning ehtimolligi, shuningdek nazariy asoslangan intervensiyalar haqidagi nazariy tasavvurlarga ega bo'lish katta ahamiyatga ega.

Barchasini inobatga olgan holda aytish mumkinki, nazariya ijtimoiy ishchiga:

- 1) tahlil qilishga, ya'ni tushunish va tushuntirishga;
- 2) faoliyat yuritish, o'zgarishlarni amalga oshirgan holda ishlashga yordam beradi.

Nazariy bilimlar yordamida ijtimoiy ishchi mijozning muammosini tushuntirib bera olishi va terapevtik jarayonning mohiyatini tushuna olishi, mijozni, hamda mijoz bilan o'zaro munosabatlarga kirishish mobaynida o'zligini tushunish imkoniyaga ega bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu nazariya bir qancha psixologik, sotsiologik va boshqa nazariyalarning kombinatsiyasidan iborat bo'lmay, balki ijtimoiy ishga tegishli nazariyalardan biri bo'lishi lozim. Xaqiqatda ham bu turli xil nazariyalarni mujassamlashtirmoq birmuncha mushkul bo'lar edi. Zero ularning ba'zilari faqat nazariy tahlilga yaroqlik bo'lsa, boshqalari – amaliy faoliyat uchun qo'l keladi. Ba'zan shunaqa ham bo'ladiki, turli xil nazariyalar turli darajada qo'llanilishi mumkin: biri inson shaxsini tushunish uchun bo'lsa, boshqasi – oilani, yana uchinchi esa – qo'llab-quvvatlash tizimini, ijtimoiy institut va to'zilmalarni tushunishda yordam beradi. Ijtimoiy ishda “inson o'zining vaziyatida” degan iboranitushunish uchun kompleks tahlilni olib borish hamda ichki va tashqi muammolar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunishga qaratilgan amaliy faoliyatlarning kompleks strategiyasini amalga oshirish uchun nazariy yondashuvlarning paydo bo'lish davri kechgan.

Lisbet va professor Gunnar Bernler (Geteborg universiteti, Shvesiya) psixoiijtimoiy deb nom olgan nazariyani ishlab chiqish ustida ishlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рамзей Р. Социальная работа: наука-профессия. К развитию концепции. / Социальная педагогика и социальная работа за рубежом,— Социальная работа,— Вып.6.— М., 1991.
2. Тетерский Н.В. Ижтимоий ишга кириш. Т. 2006
3. Kuzmin K.V., Sutyurin B.A. Ijtimoiy ish tarixi (qadimgi davrdan XX asr boshlarigacha) - 4-nashr. va rev. - M., 2006 yil.
4. Melnikov V.P. , Xolostova E.I. Rossiyadagi ijtimoiy ish tarixi. - M., 1998 yil.
5. Firsov M.V. Ijtimoiy ish tarixi. - 2-nashr. - M., 2007 yil.
6. Xolostova E.I. Rossiyada ijtimoiy ishning genezisi. - M., 2006 yil.
7. Ганиева М. Ижтимоий иш асослари. Т.: 2010 йил
8. Набиев Ф. Ижтимоий сиёсат. Т.: 2007й
9. Жўраев Л. Ижтимоий иш бўйича изоҳли луғат. Самарқанд. 2010й
10. Болибоев А. Х. Роль социальных институтов в реализации социальной политики //актуальные проблемы социального развития. философские и социологические исследования. – 2021. – с. 177-182.
11. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. *Журнал Социальных Исследований*, 3(6).
12. Абдурахмонова, М. М. (2021). ТЕОРИИ МЕЖСЕКТОРАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ К ЗАЩИТЕ ДЕТЕЙ. *Человек. Наука. Социум*, (2), 62-74.
13. Абдурахмонова, М. М. (2021). НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ ДЛЯ ПРИНЯТИЯ ЭФФЕКТИВНЫХ РЕШЕНИЙ В ШКОЛЕ. *Человек. Наука. Социум*, (1), 33-46.
14. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *Ученый XXI века*, 62.
15. Абдурахмонова, М. М., & Содикова, Д. Ш. (2020). EFFICIENCY OF MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE PREPARATION OF QUALIFIED PERSONNEL. *Человек. Наука. Социум*, (2), 8-27.
16. Абдурахмонова, М. М. (2021). МАКТАБЛАРДА САМАРАЛИ ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ УЧУН ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИ ЎРГАНИШ ЗАРУРИЯТИ. *Журнал Социальных Исследований*, (SPECIAL ISSUE 1).
17. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
18. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
19. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). UZBEK MODEL OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.

20. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O 'ZBEKISTONDA MAKTAB BITIRUVCHI O 'QUVCHILARINI KASB-HUNAR BILAN TA'MINLASHDA IJTIMOYIY ISH AMALIYOTI. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
21. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'ZBEKISTONDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
22. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O 'ZBEKISTON MAKTABLARIDA MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHISI BO 'LGAN O 'QUVCHILAR BILAN IJTIMOYIY ISH AMALIYOTI ISTIQBOLLARI. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
23. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
24. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.
25. Abdurakhmonova, M. M. ugli Mirzayev, MA, Karimov, UU, & Karimova, GY (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
26. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. Chief Editor.
27. Abdurahmonova, M. (2020). World practical experience of developing a school-oriented sphere of professional activity of social work. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1181-1186.